

AMIR TEMUR VA CHINGIZXON HARBIY SAN'ATINING QIYOSIY TAHLILI

Akobirov Mirjalol Ximmatovich

O'zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Harbiy xavfsizlik kafedrasi katta o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Annotatsiya

Kalit so'zlar:

*Ayl, xo'shun, xazora, tuman,
arban, jugun, mingan, tuman,
jaloir, tulkichi, duldoy, mo'g'ul,
sulduz, razvedka, soqchilik*

*Mazkur maqolada Amir Temur va Chingizxon harbiy san'ati,
ularning qo'shinlarining tuzilishi, qo'shinning moddiy ta'minot
masalasi, bo'linmalarining asosiy vazifalari keltirib o'tilgan.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Dunyoning 27 mamlakatini zabt etishda Amir Temurning qo'shini va uning harbiy san'ati bosh omil bo'ldi. Uning g'olibona yurishlarida qo'llagan taktik va strategik jang qilish uslublari bugungi kunda ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning harbiy bilim yurtlarida o'rganiladi va o'qitiladi. Sohirqiron Amir Temur o'zning harbiy san'atini rivojlantirish asnosida turk – mo'g'ul xalqlari, xususan Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish amallarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi. Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

Chingiziyalar qo'shini yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgan holda, Amir Temur armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi. Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Amir Temur qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan. Amir Temur qo'shinida muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi: qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi-yasol jangdan-jangga takomillashtirib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan. Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jeta singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi [1].

Amir Temur qo'shinlari asosan piyoda va otliq askarlardan iborat edi. Ular "o'nliklar" - ("ayl"), "yuzliklar" - ("Xo'shun"), "mingliklar" - ("xazora") va "o'n mingliklar" - ("tuman")ga bo'lingan. Ularga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi hamda amirlar boshchilik qilganlar. Tumanlarda askarlar soni o'n ming, qo'shinda esa 100 mingdan bo'lgan. O'n minglik lashkarni boshqarish uchun "tumon og'asi", minglik

bo'limni "mirixazora", yuzlikni "xo'shunboshi" va o'nlikni boshqarish uchun "aylboshi" kabi harbiy mansablar tashkil qilingan. Xuddi shu tartibda qo'shinni safga tizish tartibi Chingizxon harbiy san'atida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Qo'shinni bunday o'nlik tizimda qismlarga ajratib boshqarish Chingizxondan 1400-yil muqaddam xunlarda ham mavjud bo'lgan. Demak bu boshqaruv tizimni Chingizxon kashf etgan emas, ammo Chingizxon davrida qo'shin saflanishini o'nlik tizimini rivojlangan mantiqiy nihoyasiga yetgan Chingizxon qo'shinida o'nlik bo'lim "arban", yuzlik bo'linma "jugun", minglik bo'linma "mingan", o'n minglik esa "tuman" deb atalgan [4].

Bo'linma boshliqlari – amirlar Temurga tobe bo'lgan qirq aymoq (qabila)dan o'n ikkitasi: barlos, arg'in, jaloir, tulkichi, duldoiy, mo'g'ul, sulduz, to'g'oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan tanlab olingan. Eng ulug' martaba amirlik bo'lib, Temur faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab uni tark etmasdan sodiqlik bilan xizmat ko'rsatgan 313 kishiga berilgan: bittasi amir ul-umaro, to'rttasi beklar begi, yuztadan mingboshi, yuzboshi va o'n boshi bo'lgan. Bulardan tashqari, yana o'n ikki nafar kishiga birinchidan to o'n ikkinchi darajali amirlik unvoni berilgan. O'n ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noibi hisoblangan. O'n ikki amirning har biriga bittadan bayroq va bittadan nog'ora, o'n minglik qo'shin, tug' va chortug', to'rt nafar beklar begining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chorto'g' va burg'u (karnay) berilgan. Dastlabki vaqtlarda Chingizxon qo'shinida ham o'nlik tizimi asosidagi qo'shini hali urug' aymoqchilik an'alariga asoslangan [4]. Keyinchalik minglik tizimi asosidagi jangovar birlikka aylangan bo'lsada, uning negizini baribir tuzilish jihatdan baribir o'nlik tizimi tashkil etardi. Lekin e'tiborlisi shundaki, 1206-yildan keyingi davrda Chingizxon armiyasi urug'chilik asosida emas, harbiy – ma'muriy asosda va faqat lashkarboshiga so'zsiz bo'ysinuvchi bo'linmalarga bo'lingan.

Amir Temur qo'shinida harbiy kuchlarning zarbdor bo'linmasi asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar hisoblangan. Otliq askarlar o'z navbatida ikki toifaga ajratilgan. Birinchisi og'ir qurollangan otliq askarlar va ikkinchisi yengil qurollangan otliqlar. Yengil otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug'ullanganlar. Faqat zarurat tug'ulgandagina dushman bilan to'qnashganlar. Og'ir qurollangan otliq askarlar esa jangni eng qaynoq nuqtasida o'zlarini namoyon qilib jang taqdirini hal qilishda katta rol o'ynaganlar. Og'ir qurollangan otliq askarlar dubulg'a, sovut, shamshir, kamon va o'q bilan qurollanganlar va ularning har biriga 2 ta ot, har besh kishiga bitta chodir berilgan. Chingizxon qo'shinining aksariyat qismi otliq askarlardan iborat bo'lib, oldingi saflarda ko'chmanchi xalqlardan tuzilgan otliqlar o'rin olgan. Qo'shinning keyingi asosiy qismlarida mo'g'ul otliq askarlari o'rin olgan va shu orqali ular o'z kuchlarini ham tejaganlar. Chingizxon qo'shinida ham otliq askarlar ikki toifaga bo'lingan: birinchisi og'ir qurollangan otliq askarlar va ikkinchisi yengil qurollangan otliqlar. Yengil qurollangan otliqlar qo'shindan ilgariroqda soqchilik postini tashkil qilib qorovullik qilishgan va jangovar harakatlarda jangni boshlab berganlar. Bunda ular otliqlar va otlarga kamondan o'q uzib raqib qo'shinini jangovar safini buzib yuborgan va og'ir otliq askarlar harakatini yengillashtirgan. Og'ir qurollangan sara otliq askarlar 18 tagacha ot bilan ta'minlangan. Bu esa ularning tezkorligini oshirgan. Masalan Subutoy bahodir Vengriya chegarasigacha bo'lgan 290 kilometr masofani 3 kunda bosib o'tgan.

Amir Temur qo'shinida otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Piyoda askarlar yengil qurollanganlar. Otliq askarlar ham zarurat tug'ilganida otdan tushib piyoda holatda jang qilgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni hisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo'lmagan.

Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi. Jumladan, Kavkaz yerlarida olib borgan harbiy harakatlarda, 1402-yilda Kemoh qal'asini egallashda tog'lik Badaxshon askarlari ko'p naf keltirgan.

Amir Temur jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Ya'ni o'ng va chap qanotlarning xavfsizligini ta'minlash, razvedka ishlarini olib borish, chekinayotgan dushmanni ta'qib qilish uchun "kanbullar" deb nomlangan bo'linmalarni joriy qilgan. Chingizxon qo'shinida esa lashkarni orqa, yon tomonlardan va old tomonlardan bo'ladigan xavfdan ogohlantirib razvedka ishlarini olib borish uchun qo'shindan ikki kunlik yo'l uzoqlikda yengil otliqlardan tuzilgan maxsus qismlar joylashtirilgan.

Amir Temur harbiy san'atida dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g'anim tomonning yirik va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharlariga qo'qisdan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning boshliqlarini va ayniqsa, lashkarboshilarini hibsga olish, qal'a va qo'rg'onlarni uzoq muddat davomida muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar, tuman, viloyatlarini birin-ketin fath etish, dushmanni batamom yakson etgunga qadar ta'qib qilish kabi usullardan foydalanganligi namoyon bo'ladi. Fath bo'lgan yurtlarni boshqarish uchun o'zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategik maqsadlarini ko'zlab ish yuritish Amir Temurga ko'plab zafarlar olib keldi. Chingizxon mustahkam qal'a va shaharlarni egallashda qamaldagi shaharga oziq-ovqat yetkazib berishi mumkin bo'lgan atrofda qishloq va shaharlarni yakson qilgan. Mo'g'ullar odatda qal'alarni qamal qilishni xush ko'rmagan. Bu holatni ularni ochiq maydonda jang qilishga odatlangan ko'chmanchi chorvador xalq bo'lganligi bilan izohlasak bo'ladi. Ammo keyinchalik o'troq yurtlarga bostirib kirishi bilan ular qal'a va shaharlarni uzoq vaqt qamal qilishga majbur bo'ladi. Masalan, birgina Urganchni egallash uchun yetti oy vaqt sarflaganlar. Odatda ular qamal vaqtida kuchlarini tejash maqsadida asirlikdagi mahalliy aholi vakillaridan foydalanganlar.

Amir Temur o'nlik, yuzlik, minglik hamda tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga bevosita ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlaganligi va o'z joyiga qo'yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Chingizxonda ham shunday holatni kuzatishimiz mumkin. Masalan: Chingizxon "Men Isatoydan mardroq odamni bilmayman. U ega bo'lgan nodir fazilatlariga boshqalar mansub emas. Eng qiyin ko'chishlar ham uni charchata olmaydi. U ochlikni ham, suvsizlikni ham sezmaydi va o'z jangchilarini ham shu ishlarga qodir deb o'ylaydi. Mana shunday o'ylashi sababli u qo'mondonlik qila olmaydi" deb ta'kidlagan [3]. Sababi, bunday sarkardalar janglarda o'z bahodirliklariga erk berib qolganlarni imkoniyatini hisobga olmagan holda ularni hayotini xavfga qo'yadi.

Sohibqironning harbiy san'ati rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri-qo'shin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-kunbulning joriy etilishidir. Bunday mutlaqo yangi harbiy qism, tarixning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix, Chingizxon kabi dongdor sarkardalar qo'shinida bo'lmagan. Faqat XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovar tartibida qo'shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjudligini kuzatish mumkin. Harbiy mutaxassislarining, Napoleon Sharq mamlakatlariga harbiy safar qilishdan avval Amir Temur armiyasi tuzilishini, uning jang olib borish yo'l-yo'riqlarini sinchiklab o'rgangan, zarur topgan taktik usullarni o'zlashtirgan degan mulohazasi, har qalay, haqiqatdan yiroq emas [1].

Sohibqiron harbiy masalalarda kengash chaqirgan va bu holat "tunkal" deb nomlangan. Farmonlarni yetkazish masalalari bilan "tavachi" unvonidagi mas'ul shaxslar esa tayyorlangan farmonlarni kerakli shaxslarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari tavachining vazifasi qo'shin qismlarini qarorgohi yoki safardagi o'rni, qo'shinni bir joydan ikkinchi joyga ko'chish masalalarini hal qilish bo'lgan. Chingizxon ham yilning boshida muhim masalalar yuzasidan qurultoy chaqirib kegusi harbiy harakatlar haqida ogohlantirib o'tgan. Xonning farmonlarini tezlikda yetkazish uchun mo'g'ullarda yom (bekat)lar tashkil qilingan. Chingizxon qo'shinida esa "yurtchi" lavozimidagi mas'ul shaxs ushbu vazifani bajargan, ya'ni urush yoki ov paytidagi qo'shin harakatidagi o'rdugohlarni aniqlash, qo'shinlar o'tovlarini belgilash bo'lgan [3].

Sohibqiron Amir Temur qo'shiniga maosh tayinlash masalalari "Temur tuzuklari" da batafsil ko'rsatib o'tiladi. Ya'ni oddiy askar minib yurgan otini bahosida, bahodirlar esa ikki ot bahosidan to'rt ot bahosigacha maosh olganlar. O'nboshilarniki qo'l ostidagi sipohiylardan o'n barobar ko'p, yuzboshilar esa o'nboshiga qaraganda ikki barobar ko'p maosh olishi belgilab qo'yilgan [5]. Zabt etilgan o'lkalardan soliq yig'ishda xalqqa nisbatan nohaqliklarga yo'l qo'yilmasligi uchun ikki nafar nazoratchi qo'yilgan [2]. Chingizxon armiyasida esa aksincha, askarlarga maosh to'lanmagan. Ular bosqin uyushtirgan hududdan hukmdorning ruxsati bilangina talon taroj qilish hisobiga o'lja olganlar. Eng qiziq tomoni

askarlar nafaqat maosh olmas, balki yiliga ot, qoramol yoki qo'y hisobda soliq ham to'lashgan [3]. Agarda Chingizxon qo'shinida qaysidir sarkarda zabt etilgan shaharni hukmdorning ruxsatisiz talon-taroj qilgudek bo'lsa qatl etilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bu ikki buyuk sarkarda jahon harbiy san'ati o'ziga xos yangiliklar kiritdi. Chingizxon davrida qo'shin saflanishini o'nlik tizimini rivojlangan mantiqiy nihoyasiga yetgan bo'lsa, Amir Temur mana shu o'nlik tizim asosidagi qo'shinda yagi bo'linmalarni tashkil qilib jang qilish usullariga o'zgartirishlar kiritdi. Qo'shinni moddiy ta'minot masalalarida ikkisinining ham yondashuvi turlicha bo'lsa-da, ammo qo'shinda moddiy taraflama muammo bo'lgan emas.

Adabiyotlar

1. Dadaboyev H. Amir Temur harbiy mahorati. – T.: Yozuvchi, 1996. B. 9-10.
2. Hasanov F. Turon xalqlari harbiy san'ati. – T.: 2018. B. 369.
3. Ivanin Mixail. Ikki buyuk sarkarda. – T.: Yangi asr avlodi, 2017. B. 40-44.
4. Masharipov Quadrat. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy san'ati tarixidagi o'rni. – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. B. 188-189.
5. Temur tuzuklari. – T.: O'zbekiston, 2018. B. 99.